

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH

Ravshanova G.A.,

Jizzax davlat pedagogika universiteti,

Pedagogika-psixologiya va musiqa yunalishlarida masofaviy ta’lim kafedrası
o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada kreativ fikrlash qobiliyati tushunchasi, uning mazmuni va tarkibiy qismlarining mazmun mohiyati hamda uni rivojlantirishda mediata’lim texnologiyalarining o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *texnologiya, qobiliyat, fikrlash, kreativ fikrlash, intellekt, qobiliyat, iste’dod, aql, ijodiy, intellektuallik.*

АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается понятие способности к креативному мышлению, содержательная сущность ее содержания и компонентов, а также роль технологий медиаобразования в ее развитии.

Ключевые слова: *технология, способности, мышление, креативное мышление, интеллект, способности, талант, интеллект, интеллектуальность.*

Zamonaviy axborotlarning shiddat bilan tarqalishi, ijtimoiy ahamiyatga molik (ilmiy, texnologiyaga oid, madaniy va boshqalar) axborotlarning nihoyatda oshib borishi har qanday jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Axborot kommunikatsion texnologiyalari ishlab chiqarishdagi rivojlanish axborotlarni yaratish, uzatish, saqlash, ishlash, ko‘paytirish va jarayonlarini avtomatlashtirishga bo‘lgan talab, axborotni kitoblar, gazetalar, foto va kino ko‘rinishida taqdim etishga asoslangan an’anaviy axborot texnologiyalari bilan bir qatorda yangi turdagi axborot texnologiyalari vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Yangi axborot texnologiyalari an’anaviylarini siqib chiqarayotgani yo‘q lekin shu bilan birga axborotlar miqdori kamayayotgani ham yo‘q. Jamiyatda esa insonning axborotlarga moslashuvi yoki boshqacha aytadigan bo‘lsak adaptatsiya muammosi yuzaga kelmoqda. Ko‘p sondagi belgili tizimlarni paydo bo‘lishi va rivojlanishi, uning natijasi o‘laroq ko‘pkomponentli “axborot maydoni”ni tashkil topishi, insonning o‘ziga xos axborotlar olamini tashkil etadi. Vizual va audiovizual axborotdan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish muammolari bilan zamonaviy pedagogikada vizual savodxonlik deb nomlangan yo‘nalish tadqiq qiladi. Vizual savodxonlik tushunchasi turli nuqtai nazardan qaralishi

mumkin: idrok etuvchi ob'ekt va sub'ekt o'rtasida kommunikatsiya jarayoni sifatida; obrazlarni ko'rish, uning elementlarini qabul qilish, sub'ekt bilan o'zaro ta'sirlashuvi va sub'ektning ko'rish obrazlarini mutanosib qabul qila olish qobiliyati sifatida [24;25; 27].

Yurtimizda so'nggi yillarda yoshlar tarbiyasi, ularning o'sib ulg'ayishi va har tomonlama kamol topishi uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratib berilgan. Birgina maktab ta'lim tizimini takomillashtirish yuzasidan so'nggi besh yil ichida ko'plab qaror va farmonlar imzolandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha

"Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbirlari: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 226 rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni qabul qilindi. Konetsepsiyada qayd etilishicha, o'quvchilarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktab ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi [1].

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

So'nggi yillarda mediata'limning rivojlanishi va jamiyatni qamrab olishi natijasida turli mafkuraviy tahdidlar kuchaydi. Mafkuraviy tahdidlar mediatahdidga aylandi.

Internet orqali firibgarliklar, odam savdosi, kiberlyudomaniya, internet qaramligi kabi illatlar rivojlandi. Media orqali tarqatilayotgan axborotlarni to'g'ri tahlil qila olmaslik va mustaqil, tanqidiy fikrning mavjud emasligi oqibatida jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlar og'ir xulqlilikka uchramoqda. Vaholanki, zamonaviy barkamol shaxsga qo'yiladigan talablar asosini "o'z mustaqil fikriga egalik, tashqi ta'sirlarga qarshi tura olish qobiliyati" tashkil etadi. Mediamadaniyat haqida Marshall Maklyuen "Inson tom ma'noda savodli bo'lishi uchun avvalo media olamida savodli bo'lishi kerak" – degan [2].

Hozirgi vaqtda dunyo psixologlari ta'kidlaganidek, «indigo» bolalar dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni kattalardanda tez sezmoqdalar. Shuning uchun

bugungi kun tarbiyachilari oldida bir qator dolzarb vazifalar turibdi. Shulardan biri ta'lim jarayonida mediata'lim metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarni kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Kreativlik tushunchasi, uning tuzilishini nazariy modellashtirish jarayonida biz J.Renzullining ta'lim modellari va amaliy muammolarni ijod va iste'dod nuqtai

“Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbirlari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 227 nazaridan ishlab chiqishda faol qo'llaniladigan konsepsiyasiga suvandik. Bir qator tadqiqotlarda qobiliyatlar asosiy intellektual qobiliyatlar, “intellekt” sifatida qaraladi.

Biroq, A.I.Savenkovning fikriga ko'ra, “intellekt” tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko'rsatilgan modellar iste'dodni faqat bilim olish sohasida tasvirlash uchun mos keladi xolos. Boshqacha qilib aytganda, bu holatda biz xususiy yoki maxsus iste'dod turlaridan birini kuzatamiz.

J.Renzullining ijodida o'rtacha darajadagi qobiliyatlarning turli sohalarida namoyon bo'ladigan hodisa sifatida tasvirlangan. Bunga o'xshash nuqtai nazar X.Gardnerga tegishli bo'lib, muallif “intellekt” tarkibiy qismini yetti toifaga (kategoriyaga) ajratadi:

- musiqiy intellekt;
- mantiqiy-matematik intellekt;
- lingvistik intellekt;
- fazoviy intellekt;
- ichki shaxsiy intellekt;
- shaxsdan tashqari intellekt [4].

Bizga ma'lumki, maktab yoshidagi bolalar bilimlarni jadal sur'atlar bilan o'zlashtirib boradi. Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda besh yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilishga bo'lgan faollik kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning olgan bilim va ko'nikmasi uning umri davomida shakllanadigan intellektining 80% iga tenglashtiriladi.

Intellekt – aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib, tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir. Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan bog'lanadi.

AQSHlik psixolog F.Frimen intellekt oltita tarkibdan iborat degan g'oyani ilgari suradi va uning diagnostikasini quyidagi guruhlariga ajratadi:

- sonli operatsiyalarga nisbatan qobiliyatlilik;
- lug'at boyligi ko'lami;

“Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbirlari: muammolar va yechimlar”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.

228

- geometrik shakllar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlarini ajratishga nisbatan uquvchanlik;
- shaxs nutqining tezligi yoki sur‘ati;
- shaxsning fikrlashga, mulohaza yuritishga qobiliyatligi;
- xotiraning mahsuldorligi yoki noyob xislatligi [3].

Yuqoridagi intellekt tarkibiga kiruvchi umumiy aqllilik tushunchasi nimalarda ifodalanadi va uni o‘lchash mumkinmi degan savol tug‘iladi. Shunda biz asosiy e‘tiborni “ziyraklik”, “farosatlik”, “uquvchanlik” kabi tushunchalariga qaratib ushbu tushunchalar aqlning mahsuli sifatida e‘tirof etish mumkin ekanligini tushunamiz. Aqlli inson ziyrak bo‘ladi, aqllilik uquvlilikda va farosatlikda ifodalanadi.

Bolaning aqliy rivojlanishi deganda hayotiy ta‘sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi hamda fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin. Aqliy rivojlanish atamasi bir qatorda “aqliy kamolot” atamasi ham qo‘llaniladi. Aqliy kamolot – bu yoshning o‘sib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir.

Intellektual qobiliyatlari – bu ularning aqliy faoliyatining oldindan to‘plangan barcha tajribalaridan foydalanish malakasidir [5]. Aqliy qobiliyatning rivojlanishi aqliy tajriba boyigan sari, inson bajarishi mumkin bo‘lgan intellektual funksiyalarning soni va sifatining oshishi bilan amalga oshadi. Intellektual funksiyalar sifatining oshishi mavjud intellektual qobiliyatlarning rivojlanishini, intellektual funksiyalar sonining ortishi esa yangilarining paydo bo‘lishini ko‘rsatadi. Bundan kelib chiqadiki, bolalarga ta‘lim tarbiya berishdan maqsad faqat avlodlar tomonidan to‘plangan tajribani o‘tkazish emas, balki bolalarning aqliy faoliyat tajribasini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, bolalarning shaxsiy tajribasi imkon qadar boy bo‘lishi uchun harakat qilish kerak.

Intellektual qobiliyatning rivojlanishi uchun qulay davr bu o‘quvchilik davridan boshlanadi. Bolaning biror bir voqeani mustaqil ravishda tahlil qilishi va uning sabab“

Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbirlari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 229 oqibatlarini bilishi uning aqliy rivojlanishining bir qismi hisoblanadi. Shu sababli, bolalarning maktab davri o‘quv jarayonining eng muhim bosqichlaridan biridir.

Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, “maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning jismoniy, shaxsiy (ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarlik yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Jumladan:

- **jismoniy tayyorgarlik** – bolaning sog‘lomligi, harakat ko‘nikmalari, ko‘rish va qo‘l mushaklarining o‘zaro muvofiq tarzda rivojlanishi bilan izohlanadi;

- **shaxsiy tayyorgarlik** – bolaning oilada yoki biror bir ta‘lim-tarbiya maskanida tarbiyalanganligiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkinligi nazarda tutiladi;

- **maxsus tayyorgarlik**ning asosiy ko‘rsatkichlari bu faoliyatning tushunib yetilishi va erkinligi, ijodiy tasavvurlarning rivojlanganligi hisoblanadi;

- **aqliy tayyorgarlik**da maktabgacha yoshning ilk davridan boshlab bolalarda sensor, mantiqiy tasavvurlarni rivojlantirish, qurish-yasash, rasm chizish, loydan narsalar yasash orqali ko‘nikma va malakalar shakllantirib boriladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan bolaning maktabga tayyorgarlik ko‘nikmalari asta sekinlik bilan takomillashib, rivojlanib borgandan so‘ng ularda maktab davrida “ijodiy rivojlanish” davri boshlanadi. Mazkur jarayon quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- san‘at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;

- milliy an‘analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi;

- san‘atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;

- olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;

- insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Pedagogik jarayonda o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish shartsharoitlari quyidagilar: 1) psixofiziologik xususiyatlar; tug‘ma xususiyatlar; yosh bilan bog‘liq xususiyatlar va kreativlikni shakllantirishning senzitiv davrlari; 2) pedagogik hamkorlikni ijodiy erkinlik sifatida tashkil etish; o‘qituvchining kreativligi; tartibga

“Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbirlari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 230

solinadigan xulq-atvorni engillashtirish, ijodiy xulq-atvorni qabul qilish va mustahkamlash, o'qituvchining o'quvchining kreativligini yaqin kelajakda shakllantirish hududidagi ishi; 3) ijtimoiy muhit; oilaning rivojlanish vaziyati. Ushbu shart-sharoitlarning majmui ixtisoslashgan tashxis qo'yish usullarini yaratish, kreativ qobiliyatni rivojlantirilganlik darajalarining mezonlari va darajalarini aniqlash, tajriba dasturlarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mediata'lim texnologiyalariga asoslangan mashushg'ulotlar nisbatan ta'sirli va samarali ekan. O'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning "aqliy", "ijodiy", "kreativ", " mantiqiy" kabi fikrlashlariga motivlashtiruvchi mediatexnologiyalar ularni oldiga qo'yilgan topshiriqlarni yechishda imkoniyatlarini oshiruvchi pedagogik xususiyat sifatida namayon bo'ldi.

Mediata'limning umumiy mohiyati yosh avlodni uning hayotida tobora mustahkam o'rin egallab, unga keng ko'lamlil axborot muhitini taqdim etayotgan ommaviy axborot vositalari materiallari yordamida tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonda: shaxsning media vositalari orqali boshqa sub'ektlar bilan muloqotini tashkil etish; media vositalari tomonidan keng ko'lamlil, katta hajmdagi axborotlarning uzatilishi; media tomonidan uzatilayotgan axborotlarning shaxs tomonidan ijodiy, tanqidiy baholanishiga erishish; shaxsning mediamatnlarni sharhlay olish, tahlil qilish va sintezlash ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi; yoshlarda media bilan oqilona, ongli munosabat (ulardan foydalanishda suiste'molga yo'l qo'ymaslik)ni qaror toptirish; media texnikalar yordamida muayyan jarayon, voqelik, hodisalarga nisbatan shaxsiy yondashuvini ifodalashga o'rgatish kabi holatlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Mediata'limni shaxsda media tomonidan tarqatilayotgan axborotlar bilan ishlash borasidagi bilim, ko'nikma, malakalar negizida ijtimoiy tajriba hosil qilish vositasi sifatida e'tirof etish mumkin. Mazkur ta'limning ilmiy-nazariy va amaliy-metodik asoslarining puxta asoslanishi, amaliyotga izchil tatbiq etilishi yoshlarni xavfli, o'ta xavfli axborotlardan himoyalash, ijobiy mazmundagi axborotlarni tanqidiy baholash va o'z faoliyati (kundalik hayoti, kasbiy va shaxsiy faoliyati)da ularni samarali qo'llashga tayyorlashga xizmat qiladi. Mediata'limni tashkil etishda o'qituvchi – o'quvchi, o'quvchi – media tomonidan tarqatilgan axborot, o'quvchi – media xodimlari, tegishli muassasa vakillari o'rtasida keng ko'lamlil munosabatlarga tayanib ish ko'riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmoni. QHMMB: 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

2. Tulodziecki, G. (1997): Medien in Erziehung und Bildung. Grundlagen und Beispiele einer handlungs und entwicklungsorientierten Medienpädagogik. Bad Heilbrunn, p.120.

3. Frolova E., Ryabova T., Rogach O. Interactive Technologies of Forming the Students' Media Competence: Opportunities and Limitations of Their Use in Contemporary Educational Practice. Media Education (Mediaobrazovanie), 2018. 58(4), 22-29 pp.

4. Qaxxorov S.Q., Jo'raev H.O. Mediata'limning rivojlanish bosqichlari // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2017. №1. – B.36-39.

5. Qodirov X.SH. Kasb ta'limi o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash

“Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbirlari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 231metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2017.

6. Sharipov Sh., Isyanov R. Kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda virtual trenajrlarning ahamiyati // Ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini tatbiq etishning zamonaviy muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Guliston: GulDU, 2009. – B. 346-348.